



AKTUAR MOLIYA VA BUXGALTERIYA HISOBI ILMIY JURNALI

Vol. 5 Issue 11 | pp. 128-133 | ISSN: 2181-1865

Available online <https://finance.tsue.uz/index.php/afa>

OLIY TA'LIM MUASSASALARINING RAQOBATBARDOSHLIGINI BOSHQARISH YO'NALISHLARI



Mavluda Kengboyeva

O'zbekiston Respublikasi Prezidenti huzuridagi

Davlat siyosati va boshqaruvi akademiyasi

Xorijiy tillar maktabi o'qituvchisi

Annotatsiya. Maqolada oliy ta'lim muassasalarining raqobatbardoshligini boshqarishning asosiy yo'nalishlari tahlil qilinadi. Adabiyotlar va tadqiqotlar asosida strategik boshqaruv, innovatsion rivojlanish, moliyaviy va resurslarni ta'minlash, bilim iqtisodiyoti sharoitida hamkorlik strategiyalari, raqobatbardoshlik barqarorligini ta'minlash, marketing va talabalarni jalb qilish, shuningdek, strategik sheriklik va hamkorlikning ahamiyati aniqlangan.

Kalit so'zlar: oliy ta'lim muassasalari, raqobatbardoshlik, strategik boshqaruv, innovatsion rivojlanish, moliyaviy barqarorlik, hamkorlik va strategik sheriklik, marketing va talabalarni jalb qilish, bilimlar iqtisodiyoti

Аннотация. В статье анализируются основные направления управления конкурентоспособностью высших учебных заведений. На основе литературы и исследований выделены следующие области: стратегическое управление, инновационное развитие, финансовое и ресурсное обеспечение, стратегии сотрудничества в контексте экономики знаний, обеспечение устойчивости конкурентоспособности, маркетинг и привлечение студентов, а также важность стратегического партнерства и сотрудничества.

Ключевые слова: высшие учебные заведения, конкурентоспособность, стратегическое управление, инновационное развитие, финансовая стабильность, сотрудничество и стратегическое партнерство, маркетинг и привлечение студентов, экономика знаний.

Abstract. The article analyzes the main areas of competitiveness management of higher education institutions. Based on literature and research, the following areas are identified: strategic management, innovative development, financial and resource provision, cooperation strategies in the context of the knowledge economy, ensuring competitiveness sustainability, marketing and student attraction, as well as the importance of strategic partnerships and collaboration.

Keywords: higher education institutions, competitiveness, strategic management, innovative development, financial stability, cooperation and strategic partnerships, marketing and student attraction, knowledge economy

Kirish

So'nggi yillarda **universitetlarning raqobatbardoshligini boshqarish muammosi** iqtisodiyot, ta'lim menejmenti va ijtimoiy rivojlanish sohalarida faoliyat yuritayotgan olimlar tomonidan keng ko'lamda tadqiq etilmoqda. Mazkur yo'nalishdagi ilmiy izlanishlarning dolzarbligi mamlakatda kechayotgan **ijtimoiy-iqtisodiy transformatsiya jarayonlari**, milliy oliy ta'lim tizimida **nodavlat oliy ta'lim muassasalari ulushining ortib borishi**, shuningdek, mamlakatning **yagona ta'lim makoniga integratsiyalashuvi** bilan bevosita bog'liqdir.

Bugungi kunda oliy ta'lim muassasalari murakkab muammolarga duch kelmoqda. Xususan, xususiy universitetlar sonining tez sur'atlar bilan ortishi davlat universitetlariga nisbatan raqobat muhiti yaratmoqda. Turli maqomdagi ta'lim muassasalari o'rtasida shakllangan raqobat shuni ko'rsatadiki, ta'lim muassasalari faoliyatini barqaror saqlash va bozor sharoitida muvaffaqiyatga erishish uchun iqtisodiy va ijtimoiy o'zgarishlarga tezkor javob berishga majburdir. Yangi bozor iqtisodiyoti sharoitida ta'lim tizimi yanada moslashuvchan bo'lishi zarur. Professor-o'qituvchilar tarkibi zamon talablariga muvofiq innovatsiyalarga moslashishi, yangi o'quv kurslarini ishlab chiqishga va o'qitishga tayyor bo'lishi lozim. So'nggi yillarda mamlakatimizda ta'lim xizmatlariga bo'lgan talab keskin oshishi kuzatilmoqda. Bu esa shuni anglatadiki, oliy ta'lim muassasalari nafaqat talabalarni jalb qilish uchun bir-biri bilan raqobatlashmoqda, balki moliyalashtirishni oshirish va ta'lim xizmatlarini farqlash, diversifikatsiya qilish orqali raqobatbardoshligini mustahkamlashga ham intilmoqda. Shu tarzda, oliy ta'lim muassasalari raqobatbardoshligini oshirishda strategik boshqaruv va innovatsion yondashuvlarni joriy qilish zarurati ortib bormoqda.

Mavzuga oid adabiyotlar tahlili

Ilmiy adabiyotlar tahlili shuni ko'rsatadiki, "oliy ta'lim muassasalari **raqobatbardoshligi**" tushunchasiga nisbatan yagona, umumqabul qilingan yondashuv hali shakllanmagan. Shunga qaramay, ushbu kategoriyaning mazmunini aniqlash va terminologik aniqlikni ta'minlash nafaqat nazariy jihatdan, balki oliy ta'lim muassasalarining amaliy faoliyatida samarali boshqaruv qarorlarini qabul qilish nuqtayi nazaridan ham muhim ahamiyat kasb etadi.

XX asr oxirida N.I.Pashchenko oliy ta'lim muassasalari raqobatbardoshligini ularning **jamiyat ehtiyojlariga mos ravishda yuqori malakali mutaxassislarni tayyorlash**, shuningdek, **ilmiy, metodik va ilmiy-texnik mahsulotlarni yaratish, ishlab chiqish va amaliyotga joriy etish** imkoniyatlari bilan tavsiflanadigan kompleks salohiyati sifatida talqin etadi. Muallif ushbu tushunchani oliy ta'lim muassasalarining **mavjud va istiqboldagi resurslari hamda imkoniyatlari** asosida ta'lim xizmatlarini tegishli sifat darajasida ko'rsatish qobiliyati bilan bog'laydi [1, 89-bet].

D.F.Zakirovaning [2] ta'kidlashicha, mazkur yondashuv raqobatbardoshlik tushunchasining mazmun-mohiyatini eng to'liq va tizimli tarzda ochib beradi. Ushbu tadqiqot doirasida alohida qayd etish joizki, oliy ta'lim muassasalarining moliyaviy-iqtisodiy raqobatbardoshligi, avvalo, uning inqirozsiz faoliyat yuritish qobiliyatini ifodalaydi. Bunday barqaror faoliyat rejimi oliy ta'lim muassasasining o'z kreditorlari va kontragentlari oldidagi moliyaviy majburiyatlarini o'z vaqtida va to'liq bajarish imkoniyati bilan tavsiflanadi.

Raqobatbardoshlikni rivojlantirishga oid konseptual yondashuvlarni chuqurlashtirish nuqtayi nazaridan G.B.Kleyner tomonidan aniqlangan bilim iqtisodiyotining bir qator o'ziga xos xususiyatlari alohida ilmiy ahamiyatga ega [3, 32-bet]. Mazkur tadqiqot doirasida, avvalo, bilim bozorida iqtisodiy agentlar o'rtasida raqobat va hamkorlikning uyg'unlashuvi muhim jihat sifatida e'tirof etiladi. Agar moddiy ne'matlar iqtisodiyotida ishlab chiqaruvchilarning raqobatbardoshligi ustuvor bo'lgan bo'lsa, bilim iqtisodiyotida asosiy ustunlik omili sifatida subyektlarning samarali hamkorlik qilish, ya'ni kelishuvga erisha olish salohiyati maydonga chiqadi.

Raqobat va hamkorlikning o'zaro uyg'unlashuvi G.B.Kleyner tomonidan alohida ta'kidlangan prinsipial yangi yondashuv bo'lib, raqobat iqtisodiy munosabatlarning yagona mezonini emasligini asoslab beradi. Muallifning fikricha, raqobat muhim ahamiyatga ega bo'lsa-da, u iqtisodiy tizimning barcha jihatlarini qamrab ola olmaydi. Hamkorliksiz, xuddi raqobatsiz bo'lgani kabi, na zamonaviy iqtisodiyotning, na bilim iqtisodiyotining barqaror faoliyati mumkin emas [7, 32-bet].

Mazkur yondashuvdan kelib chiqqan holda, bozor ishtirokchilarining iqtisodiy jihatdan uzoq muddatli faoliyat yurita olish qobiliyatini baholashda **tashkiliy raqobatbardoshlik barqarorligi** tushunchasidan foydalanish maqsadga muvofiq, degan xulosaga kelish mumkin. Biroq ilmiy adabiyotlar tahlili shuni ko'rsatadiki, mazkur tushunchaning mazmunini talqin etishda olimlar o'rtasida yagona yondashuv shakllanmagan.

Xususan, L.A.Gorshkova raqobatbardoshlik barqarorligini iqtisodiy subyektning strategik rivojlanishini belgilovchi asosiy omillar majmui sifatida ko'rib, uning asosiy ko'rsatkichlari sifatida tarmoq ichidagi raqobat darajasi, bozor istiqbollari, subyektning bozordagi mavqei, mahsulotning iste'mol xususiyatlari, xarajatlar darajasi hamda biznes yo'nalishlari bo'yicha samaradorlikni ajratib ko'rsatadi [4].

E.V.Pecherkin esa korxonaning raqobatbardoshlik barqarorligini vaqt omili bilan uzviy bog'lab, uni vaqt bo'yicha taqsimlangan va saqlanib qoladigan raqobatbardoshlik sifatida talqin etadi [5, 89-bet]. Ushbu yondashuv raqobatbardoshlikni statik holat emas, balki dinamik jarayon sifatida baholash zarurligini asoslaydi.

Tadqiqot metodologiyasi

Tadqiqotda oliy ta'lim muassasalarining raqobatbardoshligini baholash va boshqarish yo'nalishlarini aniqlash uchun kompleks ilmiy usullar qo'llanildi. Analitik-uslubiy yondashuv asosida mavjud ilmiy adabiyotlar, strategik boshqaruv konsepsiyalari va ta'lim muassasalari faoliyatiga oid statistik ma'lumotlar tahlil qilingan. Nazariy asoslar umumlashtirilib, raqobatbardoshlik tahlili bo'yicha xulosa va takliflar ishlab chiqildi.

Tahlillar va asosiy natijalar.

Zamonaviy iqtisodiyotning rivojlanish jarayonlari iqtisodiy tizimning jamiyat taraqqiyotidagi navbatdagi bosqichi — bilim iqtisodiyotiga transformatsiyalanishi bilan bevosita bog'liq bo'lib, bu holat tashkiliy raqobatbardoshlik konsepsiyasini tubdan qayta ko'rib chiqishni taqozo etmoqda. An'anaviy raqobat modellaridan farqli ravishda, bilimga asoslangan iqtisodiyot sharoitida raqobatbardoshlik nafaqat individual ustunliklarni shakllantirish, balki barqaror hamkorlik munosabatlarini rivojlantirish qobiliyati bilan ham belgilanadi.

Shuningdek, an'anaviy raqobat va korporativ qarama-qarshiliklar o'rnini tobora "kooperativlik" va "konkooperatsiya" (bir vaqtning o'zida ham raqobat, ham hamkorlikni nazarda tutuvchi munosabatlar) egallamoqda. Bu jarayon bilimlar almashinuvi, qo'shma innovatsiyalarni yaratish va sinergetik samaraga erishish imkoniyatlarini kengaytiradi.

Oliy ta'lim muassasalarini boshqarish kontekstida mazkur tushunchani aniqlashtirish muhim ahamiyat kasb etadi. Shu munosabat bilan, ushbu tadqiqot doirasida **"Oliy ta'lim muassasasining raqobatbardoshlik barqarorligi"** tushunchasiga quyidagi mualliflik ta'rifi taklif etiladi: oliy ta'lim muassasalaritning raqobatbardoshlik barqarorligi — bu oliy ta'lim muassasasining uzoq muddat davomida raqobatchilardan ustunlikni saqlab qolish va mustahkamlashga qodir bo'lgan real hamda potensial imkoniyatlari majmui bo'lib, u ishlab chiqilgan rivojlanish strategiyasiga va muayyan bozor segmentining ustuvor tendensiyalariga muvofiq asosiy biznes jarayonlarini doimiy ravishda takomillashtirish va rivojlantirishga, mavjud resurslardan samarali foydalanishga, shuningdek, tashqi muhitning o'zgaruvchan talablarini (iste'molchilarning afzalliklari, normativ-huquqiy muhitdagi o'zgarishlar va boshqa omillarni) hamda hamkorlar bilan uzoq muddatli barqaror munosabatlarni hisobga olishga asoslanadi.

Oliy ta'lim muassasalari raqobatbardoshligini boshqarishning raqobatbardoshlik barqarorligini boshqarish bosqichiga o'tishi oliy ta'lim tizimida yangi strategik maqsadlarni amalga oshirishga xizmat qiluvchi ikki yo'nalishdagi faoliyatning shakllanishi bilan chambarchas bog'liq.

Birinchi yo'nalish uzluksiz yoki "umrbod ta'lim" konsepsiyasini ta'minlash hamda ta'lim xizmatlari bozorida yuqori malakali, mehnat bozori talablariga mos va raqobatbardosh mutaxassislarni tayyorlash orqali oliy ta'lim muassasalarining ustun jihatlarini namoyon etish imkoniyatini kengaytirishga qaratilgan. Bu jarayonda ularning raqobatbardosh ustunliklari, avvalo, uning kuchli tomonlarini belgilovchi va strategik ustunlikni ta'minlovchi asosiy biznes jarayonlarini muntazam ravishda takomillashtirish bilan bog'liq bo'ladi. Shu bilan birga, raqobatbardoshlikka salbiy ta'sir ko'rsatuvchi zaif jihatlar, samarasiz va eskirgan jarayonlarni aniqlash hamda ularni bartaraf etish muhim vazifa sifatida namoyon bo'ladi. Mazkur masalalarning tizimli hal etilishi zamonaviy oliy ta'lim muassasalari uchun muhim ahamiyat kasb etib, uning innovatsion rivojlanishiga xos bo'lgan yangi biznes jarayonlarini shakllantirish zaruratini yuzaga keltiradi.

Ikkinchi yo'nalish uzluksiz ta'limga bo'lgan ehtiyojning ortib borishi bilan bog'liq bo'lib, u oliy ta'lim muassasalari hamda uning asosiy iste'molchilari — korporativ tuzilmalar va jismoniy shaxslar o'rtasida barqaror, uzoq muddatli va o'zaro manfaatli hamkorlik munosabatlarini yo'lga qo'yishni talab etadi. Bunday hamkorlik mutaxassislikni egallash, shuningdek, kasbiy faoliyat davomida bilim va ko'nikmalarni doimiy ravishda yangilab borish jarayonini ta'minlashga xizmat qiladi. Natijada, mazkur ehtiyojlarni qondirishga yo'naltirilgan biznes jarayonlari alohida faoliyat turi — hamkorlikka asoslangan sheriklik munosabatlari sifatida shakllanadi.

Hamkorlik jarayonlari boshqaruv tizimida alohida e'tibor talab etadi, chunki ular umumiy maqsad va qadriyatlarni e'tirof etuvchi, ularga erishishda hamkorlikka tayyor bo'lgan, zarur resurslarni birgalikda safarbar etadigan hamda umumiy asosiy kompetensiyalarni shakllantirish va ulardan samarali foydalanishga yo'naltirilgan ikki

yoki undan ortiq subyektlar o'rtasida uzoq muddatli va o'zaro manfaatli munosabatlarni vujudga keltiradi.

Mazkur jarayonlarning oliy ta'lim muassasalari faoliyatidagi ahamiyati izchil ravishda ortib borayotgani, shuningdek ularning yangiligi, tashkiliy murakkabligi va shakllarining xilma-xilligi hamkorlikni mustaqil faoliyat yo'nalishi sifatida ajratish uchun yetarli ilmiy-amaliy asos mavjudligini ko'rsatadi. Bu esa uzoq muddatli hamkorlar uchun qo'shimcha qiymat yaratishga, shuningdek, o'zaro manfaatli shartlar asosida maxsus xizmatlar ko'rsatishga qaratilgan yangi biznes jarayonlarini ishlab chiqish va joriy etishni taqozo etadi.

Hamkorlik faoliyati doirasida quyidagi asosiy biznes funksiyalarni ajratib ko'rsatish maqsadga muvofiq:

- istiqbolli hamkorlarni aniqlash va tanlab olish;
- qo'shma ta'lim, ilmiy va innovatsion dastur hamda loyihalarni amalga oshirish;
- bitiruvchilarning kasbiy va martaba rivojlanishini qo'llab-quvvatlash;
- korporativ hamkorlar uchun maxsus xizmatlar ko'rsatish;
- homiylik va grant mablag'larini jalb etish;
- strategik sheriklik munosabatlarini boshqarish.

Hamkorlik shakllari ishtirokchi tomonlar tomonidan belgilangan maqsad va vazifalarga qarab turli ko'rinishlarda namoyon bo'lishi mumkin.

Xulosa va takliflar

Oliy ta'lim muassasalarida hamkorlik faoliyati ularning raqobatbardosh barqarorligini ta'minlovchi muhim strategik omilga aylanib bormoqda. Hamkorlik jarayonlarining murakkabligi va ko'p qirraliligi ularni alohida boshqaruv obyekti sifatida shakllantirishni talab qiladi. Samarali hamkorlik oliy ta'lim muassasalarining ta'lim sifatini oshirish, moliyaviy barqarorligini mustahkamlash va mehnat bozori talablariga mos kadrlar tayyorlash imkoniyatini kengaytiradi. Hamkorlikni institutsional, iqtisodiy va raqamli mexanizmlar orqali boshqarish oliy ta'lim muassasalari uchun uzoq muddatli raqobatbardosh ustunlik manbai hisoblanadi.

Oliy ta'lim muassasalarida hamkorlik faoliyatini faqat qo'shimcha yoki yordamchi yo'nalish sifatida emas, balki ularning raqobatbardosh barqarorligini ta'minlovchi mustaqil strategik faoliyat turi sifatida shakllantirish maqsadga muvofiq. Bu holda hamkorlik oliy ta'lim muassasalarining umumiy rivojlanish strategiyasi, missiyasi va uzoq muddatli maqsadlari bilan integratsiya qilingan holda boshqarilishi lozim.

Hamkorlik jarayonlarining samaradorligini oshirish uchun oliy ta'lim muassasalari tuzilmasida: strategik sherikliklar bo'limi, korporativ hamkorlik va bitiruvchilar bilan aloqalar markazi, xalqaro va mahalliy loyihalarni muvofiqlashtiruvchi ofis kabi maxsus institutsional tuzilmalarni tashkil etish taklif etiladi. Bu hamkorlik jarayonlarining tizimli, shaffof va natijaga yo'naltirilgan boshqaruvini ta'minlaydi.

Hamkorlik natijalarini baholash uchun quyidagi indikatorlar tizimini joriy etish taklif etiladi:

- faol hamkorlar soni va ularning diversifikatsiya darajasi;
- qo'shma ta'lim dasturlari va loyihalar ulushi;
- hamkorlik asosida jalb qilingan moliyaviy resurslar hajmi;
- bitiruvchilarning ish bilan ta'minlanish darajasi;

— hamkorlar qoniqish indeksi.

Ushbu ko'rsatkichlar hamkorlik faoliyatining strategik samaradorligini baholashga xizmat qiladi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI

1. Пащенко Н.И. Конкурентоспособность вузов и стратегии их деятельности в условиях региональной конкуренции: Дис. ... канд. экон. наук. Уфа, 1999. 191 с.
2. Закирова Д.Ф. Стратегическое управление потенциалом как фактор обеспечения конкурентоспособности высшего учебного заведения в условиях рыночной экономики // Вестник ТИСБИ. 2005. № 3.
3. Клейнер Г. Микроэкономика знаний и мифы современной теории // Высшее образование в России. 2006. № 9. С. 32–37.
4. Горшкова Л.А. Анализ конкурентоустойчивости субъекта хозяйствования // Аудит и финансовый анализ. 2003. № 3.
5. Печеркина Е.В. Классификация факторов конкурентоустойчивости предприятия // Вестник ОГУ. 2005. № 8. С. 89–95.
6. Smith, J., & Brown, L. *Strategic Partnerships in Higher Education*, London: Routledge, 2019.
7. Kleiner, G.B. *Knowledge Economy and University Competition*, Berlin: Springer, 2010.

Copyright: © 2025 by the authors. This work is licensed under a Creative Commons Attribution-4.0 International License (CC - BY 4.0)

